

TOSHKENT HAQIQATI

viloyat ijtimoiy-siyosiy gazetasi

2026-yil
1-avgust

SHANBA

№ 61 (13922)

1928-yil 11-dekabrda asos solingan

@haqiqatonline_24

Haqiqat online

haqiqatonline_

ЯНГИ ҲАЁТ ВА ЁРУҒ КЕЛАЖАК РАМЗИ

Нурафшон Янги Ўзбекистон тараққиётининг қудратли таянчларидан бирига айланмоқда



Кейинги ўн йиллик мамлакатимиз ижтимоий-иқтисодий, маънавий-маърифий соҳалар, қўйингки, ҳаётимизнинг барча жабҳаларида ривожланиш силсиласининг янги босқичини бошлаб берди. Тарихан жуда қисқа ушбу даврда Нурафшон, Бобур, Янги Тошкент каби замонавий шаҳарларга асос солиниб, бу кентлар инсон учун ҳар тарафлама қулай бўлган замонавий мегаполисларга айлантирилмоқда. Айниқса, Тошкент вилоятининг маъмурий маркази – Нурафшон ҳақида гап қилганда, у ўзининг ярим асрдан зиёд тарихи мобайнида кейинги йиллардагидек ўзгариш, янгиланиш ва улкан бунёдкорликнинг гувоҳи бўлган эмас.

Дарҳақиқат, бугун кўз ўнгимизда қад ростлаётган Нурафшон шахри мисолида юртимизда амалга оширилаётган буюк бунёдкорликка гувоҳ бўлмоқдамиз. Мамлакатимизнинг муштақам иқтисодий таянчларидан бири бўлган Тошкент вилоятининг қиёфаси йил ёки ой сайин эмас, кун ва соат сайин янгиланаяпти. Худудда яшовчи кўп миллатли, мард ва меҳнатсевар, кўнали тоғ қадар юксак аҳоли эса ҳар дақиқада уйғониш нафаси ва янгиланиш завқини ҳис қилмоқда. Шубҳасиз, бу давлатимиз раҳбари ташаббуси билан инсон қадрини улуғлаш, ҳудудларни обод этиш бўйича ортга қайтмас ислохотларнинг мевасидир.

Ватанимиз мустақиллигининг 35 йиллигига

МАҲАЛЛАДА ДУВ-ДУВ ГАП

Маълумки, Тошкент вилояти ташкил топгандан бери ўз маъмурий марказига эга бўлмаган. Худуд бошқаруви Тошкент шаҳрида фаолият юритиб, вилоятнинг реал ҳаётдан узилиб қолганди. Ҳатто вилоятда нуфузли анжуман ва давлат тадбирларини ўтказиш учун ҳам шарт-шароит йўқ эди. Бу ҳолат нафақат бошқарув тизими самарадорлигини пасайтирди, балки худуднинг иқтисодий салоҳиятини тўлиқ намоён этишига ҳам тўсқинлик қилди. Шу маънода, Тошкент вилояти учун замонавий маъмурий марказни барпо этиш қарори вилоят тараққиётига янги суръат бағишлайдиган стратегик воқеалик бўлди.

Президентимиз Шавкат Мирзиёев 2016 йил 15 декабрь куни халқ депутатлари Тошкент вилояти Кенгашининг сессиясида иштирок этиб, Ўрта Чирчиқ туманининг маъмурий маркази бўлган Тўйтепа шахри вилоятнинг маъмурий марказига айлантирилишини маълум қилганида кўнчилик тараддулланиб қолгани ҳам рост.

– Икки-уч йилдан сўнг Тўйтепа тўлиқ янги кўриниш касб этади: бу ерда янги уйлар пайдо бўлади. Тошкентдан бу шаҳарга тезкор автомагистраль қурилади, – дея келгуси режаларни катта ишонч билан таъкидлаган эди давлатимиз раҳбари.

Уша вақтда шаҳарда 29 мингдан ортиқ аҳоли истиқомат қилган бўлса, 2026 йилда ўтказилган аҳолини рўйхатга олиш

тадбирларидан кейинги маълумотларга кўра, ҳозирги вақтда Нурафшон шахрининг нуфуси қарийб 60 минг нафарни ташкил этган. Бунинг замирига назар солинса, аҳолининг табиий ўсиши билан бирга, бошқа ҳудудлардан одамларнинг муқим яшаш учун кўчиб келаётгани ҳам яққол аён бўлади. Абдулла Қаҳҳорнинг нафаси теккан ва Шухрат Аббосов режиссёрлигида кинотасмаларга муҳрланган “Маҳаллада дув-дув гап” фильми дебечасидаги монолог Нурафшон шахрининг бугунги ҳаётини олиб ёзилгандек, гўё:

“Таажжуб, кўз ўнгингда бўлиб турган нарсаларни кўп ҳам пайқамайсан, киши.



Вақти келиб пайқаганимда ҳам, худди азалдан бордек туюлади. Эсингизда борми-йўқми, билмадим, мана шу сиз қўриб турган жойлар эгри-бугри тор кўчалар, қалдирғоч уяси сингари деворлар, пасту баланд каталак уйлардан иборат эди. Бунақа маҳаллалар ҳали ҳам битта-яримта топилиб қолади. Лекин борлари ҳам мана шу азамат қурилишлар олдида бамисоли дарё устида қалқиб юрган ҳасдек ҳаётдан четланмоқда. Қоронги кўчалар нурга тўлиб, жинкўчалар йўқолиб, сайроҳлар, кишини ўзига тортадиган хиёбонлар, гулзорлар, ҳашаматли, кўп қаватли сўлим бинолар қад кўтармоқда. Хуллас, шаҳримизнинг қаерига борманг, ҳамманинг оғзида шу, ҳар бир маҳаллада дув-дув гап...”

Сайёр қабул



ҲАР БИР МУРОЖААТ – ЭЪТИБОРДА

Нурафшон шахрида жойлашган Ўзбекистон Республикаси Президентининг Тошкент вилоятидаги Халқ қабулхонасининг янги биносида Тошкент вилояти ҳокими Зойир Мирзаевнинг фуқаролар билан навбатдаги шахсий қабули бўлиб ўтди.

2

БУГУН ҚЎЙИЛГАН ТАМАЛ ТОШЛАРИ

эртанги тараққиёт пойдеворидир

Президент Шавкат Мирзиёевнинг Тошкент вилоятига ташрифи мамлакат тараққиётининг бугунги босқичида алоҳида аҳамиятга эга бўлган стратегик воқеалардан бири сифатида эътиборга молик. Давлатимиз раҳбари иштирокида транспорт инфратузилмаси, рақамли иқтисодиёт, инновациялар ва саноат соҳаларида қатор йирик лойиҳаларга старт берилгани Янги Ўзбекистонда амалга оширилаётган ислохотлар изчил ва аниқ мақсадларга қаратилганини яна бир бор тасдиқлади.

Муносабат

Энг аввало, Тошкент – Самарқанд пуллик муқобил автомагистрали қурилишига тамал тоши қўйилгани мамлакат транспорт тизимида янги даврни бошлаб бермоқда. Қиймати қарийб 2,2 миллиард доллар бўлган мазкур йирик лойиҳа нафақат икки шаҳарни тезкор боғлаш, балки иқтисодий фаоллигини ошириш, логистика харажатларини қисқартириш ва ҳудудларнинг инвестициявий жозибадорлигини кучайтиришга хизмат қилади.

2

Турналар башарни ТИНЧЛИККА УНДАР!



3

Viloyat bo'ylab

TOSHKENT
viloyati hokimligi hamda viloyat Sog'liqni saqlash boshqarmasi hamkorligida hokimlik xodimlari uchun profilaktik tibbiy ko'rik tashkil etildi. Ko'rik davomida xodimlar malakali shifokorlar tomonidan kompleks tibbiy tekshiruvdan o'tkazildi. Zarur laboratoriya tekshiruvlari amalga oshirilib, har bir xodimning sog'lig'i bo'yicha tegishli tavsiyalar berildi.

Xalq banki tomonidan QIBRAY tumanining Jomiy nomli mahallasida reyestrda turuvchi oilalar holidan xabar olinib, amaliy yordam ko'rsatildi. Mutasaddi tashkilotlar tomonidan ehtiyojmand fuqarolarga nogironlik aravachasi, oziq-ovqat mahsulotlari hamda dori-darmon xarajatlari uchun moddiy yordam yetkazib berildi. Bunday ezgu tashabbuslar inson qadrlini ulug'lash, keksalar va ehtiyojmand oilalarni qo'llab-quvvatlash, mahallalarda mehr-oqibat va birdamlik muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

BEKOBOD tumanida fermer xo'jaliklari rahbarlari va soha mutasaddilari ishtirokida amaliy seminarlar tashkil etildi. Uchrashuvlarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining sohaga oid qarorlari ijrosini ta'minlash, yangi paxta terish mashinalarini xarid qilishni jadallashtirish hamda takroriy ekinlar ekishni qisqa muddatlarda yakunlash masalalari atroflicha muhokama qilindi. Shuningdek, fermerlarni qiziqtirayotgan masalalar yuzasidan ochiq mulqot o'tkazildi.

BO'STONLIQ tumanida yangi yo'nalishda yirik investitsiya loyihasi amalga oshirilmoqda. Buning uchun elektron onlayn auktsion orqali 46 gektar yer maydoni investorga ajratilib, umumiy qiymati 100 million AQSH dollariga teng loyiha doirasida tog' hududida zamonaviy akvapark barpo etilmoqda. Mazkur majmua bir vaqtning o'zida 3,5 ming nafar mehmonni qabul qilish imkoniyatiga ega bo'lib, hududning turizm salohiyatini oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish hamda investitsiyalarni samarali o'zlashtirishga xizmat qiladi.

ҲАР БИР МУРОЖААТ – ЭЪТИБОРДА

Унда вилоят ҳокимининг ўринбосарлари, бошқарма ва ташкилотлар раҳбарлари, банк ҳамда молия муассасалари масъуллари иштирок этиб, фуқароларни қийнаётган масалаларни бевосита тинглади. Билдирилган мурожаатларнинг мазмуни атрофлича ўргани-

(Давоми. Бошланиши 1-саҳифада)



либ, уларнинг ечими юзасидан масъулларга тегишли топшириқ ва кўрсатмалар берилди.

Фуқаролар томонидан уй-жой ва ер ажратиш, бандликни таъминлаш, тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш, коммунал хизматлар, ичимлик суви ва электр таъминоти, йўл инфра-тузилмаси, кредит ажратиш, ижтимоий ҳимоя каби кўплаб

масалалар кўтарилди. Мурожаатларнинг аксари жойида ҳал этилди. Қўшимча ўрганиш ва вақт талаб этадиган масалалар эса тегишли мутасаддиларга бириктирилиб, ўрганиш бўйича муҳлат берилди.

Бундан ташқари, қабулга ташриф буюрган фуқаролар Халқ қабулхонасининг янги биносига яратилган шароитлар



билан ҳам танишишди. Замонавий рақамли хизматлар, электрон мурожаатлар тизими ҳамда аҳолига хизмат кўрсатиш учун ташкил қилинган кулай майдонлар ташриф буюрувчиларга намойиш этилди.

Айниқса, сунъий интеллект асосида ишловчи ҳуқуқий маслаҳат платформаси фуқароларда катта қизиқиш уйғотди. Мазкур тизим орқали ташриф буюрувчилар ўзларини қизиқтирган ҳуқуқий масалалар юзасидан тезкор маслаҳат олиб, зарур маълумотларга эга бўлиш имкониятига эга бўлди.

Фуқаролар билан бундай очиқ ва бевосита мулоқотлар аҳолининг мурожаатларини ўз вақтида кўриб чиқиш, муаммоларни чуқур ўрганиш ва уларнинг амалий ечимини таъминлашда муҳим аҳамият касб этмоқда. Бу галги шахсий қабул ҳам халқ билан мулоқотнинг самарали механизмларидан бири сифатида муҳим масалаларни жойида ҳал этишга хизмат қилди.

Ўз мухбиримиз
Жалолiddин ЭСОНОВ
олган суратлар

ОТА МЕРОС, ОНА МЕРОС ВАТАН БУ!

Ватан ҳақида сўз юритиш – юрак ҳақида сўз юритиш демакдир. Уни таърифлаб адоғига етиб бўлмайди. Уни севиш мумкин, аммо бу муҳаббатнинг чега-

▼ Ўзбекистон Республикаси Мустақиллигининг 35 йиллигига

Кимдир Ватанни харитадан қидиради. Биз эса уни онамизнинг алласида, отамизнинг дуосида, болалигимиз қолган кўчаларда, ҳовлимиздаги тут дарахти соясида, тандирдан таралган иссиқ нон ҳидида, саҳарти азон садосида, далалар узра эсган шабадада топамиз. Чунки Ватан – фақат ҳудуд эмас. У хотира, қадрият, меҳр ва тақдирдир.

Самолёт Ватан осмонига кириб келганда қалб нега ҳаяжонга тўлади? Нега кўнш олдида юрагимиз тез-тез ура бошлайди? Буни ақл эмас, юрак биледи.

Нега халқро мусобақаларда байроғимиз баланд кўтарилиб, мадҳиямиз янграганда кўларимизга беихтиёр ёш келди? Нега бўғимизга тикилган туйғуни яширишга уринамиз? Чунки ўша лаҳзаларда бутун миллатнинг қалби битта юрак бўлиб уради.

расини чизиб бўлмайди. Ватанга бўлган муҳаббат инсонга яратилишиданоқ ато этилган, қон-қонига, жон-жонига сингдирилган илоҳий неъматдир.

Яқиндагина миллий терма жамоамизнинг жаҳон чемпионатидаги иштирокчини миллионлаб юртдошларимиз катта ҳаяжон билан кузатишди. Ғалаба қувончини ҳам, мағлубият аламини ҳам бирга ҳис қилдик. Ижтимоий тармоқлардаги самимий изтироблар, кўзлардаги ёш, диллардаги умид бир ҳақиқатни яна бир бор намоён қилди: Ватан муҳаббати – инсонни ўзи учун эмас, миллат учун яшашга ундайдиган буюк кучдир.

Ватанга муҳаббатни ҳеч ким ўргатамайди. У инсон билан бирга улғаяди. Киндик қони тўкилган туپроқ, она алласи, ота тарбияси, маҳалла меҳри, муқаддас қадриятлар уни қалбимизга муҳрлаб қўяди. Йиллар ўтган сайин бу муҳаббат имонга, ориятга, виждонга айланади. Шунинг учун ҳам халқимиз: «Ватан – жон», «Ватан – шараф», «Ватан – иймон», деб бежиз айтмаган.

Тарихимизга назар ташласак, ҳар бир саҳифаси Ватан деб урган юраклар билан ёзилганини кўраимиз. Тўмариснинг жасорати, Широқнинг фидойилиги, Жалолiddин Манғубердиннинг матонати, Амир Темурунинг буюк давлатчилик ғояси – буларнинг барчаси бир муқаддас тушунча – Ватан озодлиги учун қилинган хизматдир. Заҳрирiddин Муҳаммад Бобурнинг Ватан соғинчи, Зокиржон Фуқратнинг ҳасрати ҳам она юртининг инсон қалбида нечоғли юксак ўрин тутишини англатади.

Мустақиллик бизга фақат эркин яшаш ҳуқуқини эмас, ўзлимизни англаш бахтини ҳам қайтарди. Бугун ўз тақдирини ўзи белгилаётган, буюк келажақ сари дадил қадам ташлаётган Янги Ўзбекистонда яшар эканмиз, Ватанга муҳаббат энди фақат ҳиссиёт

ўтказилди. Натижада 5 минг 788 та объект бўйича ижобий хулоса берилди, 4 минг 260 та объектка нисбатан мулк ҳуқуқи эътироф этилди. Бу эса минглаб фуқароларнинг ҳуқуқий муаммоларини ҳал этишга хизмат қилди.

Шунингдек, юридик хизмат кўрсатиш марказлари томонидан 1 минг 831 та давлат ташкилотига ҳуқуқий хизмат кўрсатилди. Ҳисобот даврида 412 минг 717 та ҳуқуқий ҳужжат ҳуқуқий экспертизадан ўтказилиб, уларнинг 350 минг 847 тасига ижобий хулоса берилди. Суд ишлари натижасида давлат ташкилотлари фойдасига 545 миллион сўмдан ортиқ маблағ ундирилди.

Қайд этиш жоизки, Давлат хизматлари марказлари фаолияти ҳам аҳоли учун янада қулайлашиб бормоқда. Биринчи ярим йилликда жами 1 миллион 733 минг 156 та давлат хизмати кўрсатилган бўлса, уларнинг 1 миллион 349 мингдан ортиги онлайн шаклда амалга оширилди. Бу рақамлар рақамли давлат хизматларига бўлган талаб ва имкониятлар тобора ортиб бораётганини англатади. Шунингдек, чекка ҳудудларда яшовчи аҳоли учун 36 мингдан ортиқ сайёр давлат хизмати ташкил этилди. Фуқаролик ҳолати далолатномаларини ёзиш органлари томонидан 29 минг 978 та туғилиш ва 6 минг 772 та никоҳ давлат рўйхатидан ўтказилди.

Давлат хизматлари кўрсатилиши устидан назорат тадбирлари давомидида 4 минг 700 дан ортиқ қонунбузилиш ҳолати аниқланди. Ваколатли ташкилотларга 48 та огоҳнома ва 10 та тақдирнома киритилди, 154 нафар шахсга нисбатан маъмурий таъсир чоралари қўлланилди.

Матбуот анжумани якунида оммавий ахборот воситалари вакиллари ҳамда журналистларни қизиқтирган саволларга мутасаддилар томонидан атрофлича жавоб берилди.

Нигора УРОЛОВА,
"Тошкент ҳақиқати" мухбири

БУГУН ҚҲЙИЛГАН ТАМАЛ ТОШЛАРИ

эртанги тараққиёт пойдеворидир

Бугунги глобал иқтисодиётда рақобат кўп жиҳатдан транспорт ва логистика самарадорлиги билан белгиланади. Шу нуқтаи назардан, янги автомагистраль м а л а к а т н и н г халқро транспорт йўлаклариди ўрнини янада муаммоларга хизмат қилади. Айниқса, "Хитой–Қирғизистон–Ўзбекистон" ҳамда Трансафгон темир йўллари билан уйғунлиқда мазкур замонавий йўл Ўзбекистоннинг минтақавий логистика марказига айланишида муҳим омили бўлиши кутилмоқда.

Бундан ташқари, ташриф давомида Нурафшон шахрида "Келажақ технологиялари маркази"га асос солингани ҳам рамзий ва амалий аҳамиятга эга. Бугун дунёда иқтисодий устунлик табиий бойликлар эмас, балки билим, инновация ва сунъий интеллект имкониятлари билан белгиланмоқда. Шу маънода, таълим, илм-фан ва юқори технологияли ишлаб чиқаришни бирлаштирувчи мазкур марказ мамлакатнинг рақамли тараққиёти учун муҳим интеллектуал майдонга айланиши шаксиз.

Президенти мизнинг рақамлаштириш ва сунъий интеллектни тараққиётнинг ҳал қилувчи омили сифатида баҳолаган фикрлари ҳам бугунги замон талаблари билан тўлиқ ҳамоҳанг. Венчур инвестициялар ҳажмининг ортиши, миллий стартап экосистимининг ривожланиши ва ёшлар учун янги имкониятлар

(Давоми. Бошланиши 1-саҳифада)

яратилаётгани мамлакатда инновацион иқтисодиётни шакллантиришга қаратилган тизимли сиёсатнинг амалий натижасидир.

Қолаверса, Тошкент вилоятида Хитой, Россия ва Германия компаниялари иштирокида янги sanoat қувватларига старт берилгани ҳам хорижий инвестициялар оқими изчил давом этаётганини кўрсатади. Бу эса янги иш ўринлари, юқори қўшилган қийматга эга маҳсулотлар ишлаб чиқариш ва аҳоли фаровонлигини оширишга хизмат қилади.

Эътиборли жиҳати шундаки, ташриф доирасида бошланган барча пойиҳалар ягона мақсад – мамлакат иқтисодиётининг барқарор ўсишини таъминлаш, инсон капитали салоҳиятини юксалтириш ва Янги Ўзбекистоннинг рақобатбардор иқтисодиётини барпо этишга хизмат қилади.

Мухтасар айтганда, Тошкент вилоятида бошланган янги лойиҳалар фақат йirik қурилишлар ёки инвестиция ташаббуслари эмас. Улар мамлакатнинг транспорт, технология ва инновациялар соҳасидаги узоқ муددатли тараққиёт стратегиясининг амалий ифодасидир. Зеро, бугун қўйилаётган ҳар бир тамал тоши, аввало, Ўзбекистоннинг эртанги иқтисодий қудрати, халқро рақобатбардорлиги ва халқ фаровонлиги учун мустақам пойдевор вазифасини бажаради.

Манзура РУСТАМОВА,
Демократик жараёнларни таҳлил қилиш маркази Тошкент вилояти ҳудудий бўлини маси мутахассиси

▼ Матбуот анжумани

ҲУҚУҚ УСТУВОРЛИГИ – ТАРАҚҚИЁТ КАФОЛАТИ

Бугун Янги Ўзбекистонда давлат идоралари фаолиятининг очиклиги, аҳолига кўрсатилаётган ҳуқуқий хизматлар сифати ва адлия органлари фаолияти самарадорлигига алоҳида эътибор қаратилаётгани бежиз эмас. Вилоят Адлия бошқармасида жорий йилнинг биринчи ярим йиллиги якунлари юзасидан матбуот анжумани ўтказилди. Унда эълон қилинган рақамлар амалга оширилаётган ишлар кўламини англатади.



Таъкидланганидек, аҳолининг ҳуқуқий онги ва ҳуқуқий маданиятини ошириш, фуқароларнинг қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш, давлат хизматлари сифатини ошириш, мурожаатлар билан ишлаш самарадорлигини кучайтириш бугунги куннинг устувор вазифаларидир.

– Жорий йилнинг дастлабки олти ойда адлия органларига жами 4 минг 318 та мурожаат келиб тушган бўлиб, уларнинг 95,2 фоизи ижобий ҳал этилди, – деди вилоят Адлия бошқармаси бошлигининг ўринбосари Икром Бекниязов. – Хусусан, 2 минг 805 та мурожаат қаноатлантирилган, 1 минг 309 таси бўйича эса фуқароларга ҳуқуқий тушунтиришлар берилди.

Қонунчилик ижросини таъминлаш юзасидан 697 та мониторинг ва 173 та ўрганиш ўтказилди. Натижада 1 минг 203 та тақдимнома киритилди, умумий

қиймати 11,7 миллиард сўмлик 298 та даъво аризаси судларга тақдим этилди ҳамда 188 та маъмурий материал расмийлаштирилди. Шу билан бирга, "lrg.gov.uz" тизими орқали 326 та ҳолат жойига чиққан ҳолда ўрганилди.

Ҳуқуқни қўллаш амалиётини такомиллаштириш ҳам доимий эътибор марказида бўлди. Ижтимоий-иқтисодий соҳадаги ҳуқуқий амалиёт таҳлил қилиниб, 28 та таклиф ишлаб чиқилди ва улар ваколатли вазирлик томонидан инобатга олинди.

Фуқароларнинг мулк ҳуқуқини таъминлаш борасида ҳам салмоқли ишлар амалга оширилди. Хусусан, "Ўзбошимча"лик билан эгаллаб олинган ер участкаларига ҳамда уларда қурилган бинолар ва иншоотларга бўлган ҳуқуқларни эътироф этиш тўғрисида"ги Қонун ижроси доирасида 160 мингдан ортиқ кўчмас мулк объекти хатловдан

▼ Танлов

Айни кунларда юртимиз бўйлаб "Йил ўқитувчиси" республика кўрик-танловининг ҳудудий босқичлари бўлиб ўтмоқда. Унда педагоглар ўзларининг салоҳиятларини синовдан ўтказишмоқда.



БИЛИМЛИЛАР САРАЛАНДИ

Хусусан, Тошкент вилояти Педагогик маҳорат марказида ўтказилган мазкур танловнинг вилоят босқичи ҳам якунланди. Унда 22 та умуман ва шаҳардан 44 нафар педагог уч кун давомида билимларини синовдан ўтказишди.

Номзодларнинг чиқишлари 100 баллик тизим асосида икки йўналишда баҳоланди. 20 балл педагогнинг маънавий-маърифий фаолияти, тарбиявий ва синфдан ташқари ишлари ҳамда ташаббусларига бағишланган тақдирот учун берилган бўлса, қолган 80 балл китобхонлик бўйича тест синовлари орқали аниқланди.

– Ўқитувчи меҳнатининг

натижаси бир кун ёки бир йил билан ўлчанмайди, – деди вилоят Мактабгача ва мактаб таълими бошқармаси бошлиги Шукр Бурханов. – Бугун синф хонасида берилган билим самараси эртага ўқувчининг танлови, касби, дунёқараши ва ҳаёт йўлида намоён бўлади. Шу боис замонавий педагогдан фақат ўз фанини яхши билиш эмас, доимий изланиш, мутлола, янгилик фикрлаш ва ўқувчи қалбига йўл топиш маҳорати ҳам талаб этилади.

Якуний натижаларга кўра, иштирокчилар орасидан 22 нафар педагог қалиб

деб топилди. Улар базавий ҳисоблаш миқдорининг 1 минг 400 баравари миқдориди пул мукофоти билан тақдирланишди.

Танловнинг вилоят босқичи якунланган бўлса-да, унинг таълим тизимига таъсири тугамайди. Бу ерда 44 нафар устоз синовдан ўтди. Эртага эса уларнинг тажрибаси ва изланишлари минглаб ўқувчилар билимида акс этишига шубҳа йўқ.

Дилафруз ШУКУРОВА,
вилоят Мактабгача ва мактаб таълими бошқармаси Ахборот хизмати раҳбари

300 НАФАР ФУҚАРО КЎРИҚДАН ЎТКАЗИЛДИ

Қорақалпоғистон Республикасининг Мўйноқ туманида аҳоли саломатлигини муҳофаза қилиш, касалликларни эрта аниқлаш ва профилактика ишларини кучайтириш мақсадида Тошкент вилоятидан жалб этилган малакали шифокорлар иштирокида кенг қамровли тиббий кўрик ўтказилди.

▼ Саломатлик

Унда 300 нафардан ортиқ фуқаро малакали мутахассислар томонидан кўрикдан ўтказилди. Бунда, айниқса, эндокрин ва онкологик касалликларни эрта босқичда аниқлашга алоҳида эътибор қаратилди. Текширувлар натижасида аниқланган ҳолатлар бўйича фуқароларга

зарур тавсиялар берилиб, қўшимча даволаниш учун йўналишлар белгиланди. Шунингдек, шифокорлар туман тиббиёт муассасаларида даволанаётган беморлар ҳолидан хабар олиб, кўрсатилаётган тиббий хизмат сифати ҳамда яратилган шарт-шароитлар билан танишишди.

Тадбир доирасида аҳоли ўртасида соғлом турмуш тарзини тарғиб қилиш, эндокрин ва онкологик касалликларнинг олдини олиш, уларнинг хавф омиллари ҳақида тушунтириш берилди. Шу билан бирга,


маҳаллий шифокор ва ҳам-халқ касалликларнинг олдини олиш, уларнинг хавф омиллари ҳақида тушунтириш берилди. Шу билан бирга,



▼ Китоб жавонингизга

Қадрдон дўстим, таниқли шоир ва таржимон, Ўзбекистонда хизмат кўрсатган журналист Асрор Мўмин билан учрашганимизда у менга ўзининг яқинда нашрдан чиққан "Турналар" номли янги китобини тақдим этди. Мен Асрор аканинг мухлиси сифатида унинг ижо-

дини ўтган асрнинг охирларидан кузатиб борганлигим сабабли ушбу китобни катта қизиқиш билан ўқий бошладим. Ростини айтсам, китобни мутлолаа қилар эканман уни ҳеч қўлимдан қўйгим келмасди. Шу куни нонушта ҳам, тушлик ҳам насия бўлди...



Турналар башарни тинчликка ундар!

Машҳур авар шоири Расул Ҳамзатовнинг "Турналар" китобига унинг қатор шеър ва дostonлари киритилган экан. Уларнинг аксариятини мен рус тилида ўқиган бўлсам-да, Расул Ҳамзатовни ўзим учун янгидан кашф этдим. Сабаби Асрор аканинг таржимасидаги шеърларда худди Расул оғани ўзи ўзбекча ёзгандай таъсири чиққанди.

Дарҳақиқат, таржимоннинг меҳнати жуда оғир. Ахир, таржима фақатгина сўзларни лугат ёрдамида ўгириш эмас, балки шеърнинг куйи, оҳанги, вазини сақлаб қола билиш, қофияга солиш, муаллиф айтмоқчи бўлган фикрни ўқувчига ўзидай бадиий тарзда етказа олиш деганидир. Асрор Мўминнинг таржималарини ўқир экансиз, ушбу талаблар ортиги билан амалга оширилганлигига гувоҳ бўласиз. Маълумки, ўзбек тили бой тил

бўлганлиги учун сўзларнинг бир нечта синонимлари мавжуд. Асрор ака ушбу синоним сўзлардан моҳирона фойдаланган ва унинг сўзларни қофияга солиш бора-сидаги топилмалари ҳам алоҳида таҳсинга сазовор. Шунинг алоҳида таъкидлаш жоиз, китобдан ўрин олган ҳар бир шеър чуқур фалсафий маъно-мазмунга эга бўлиб, таржимон уларни аслиятдагидай оддий ва жозибали тарзда ўқувчиларга етказа олган.

Бу фикрлар кенг қамровли дostonларига ҳам тааллуқли. Хусусан, "Оналарни асранг" дostonини мутлолаа қилар экансиз, қуйидаги мисраларни ўқиганда беихтиёр кўзингизга ёш келади: *Осмонга қарайман бўм-бўш хонамдан, Турналар, қайтингиз кўрелар айтиб, Мен бевақт айрилиб қолдим онамдан, Энди онажоним келмайди қайтиб...*

Кавказ халқларининг озодлик ҳаракати йўлбошчиси Шомилга бағишланган "Шомилнинг муҳаббати" дostonидаги қуйидаги икки мисра олам-олам мазмунга эга.

Аллоҳнинг қарам кенга, Ишқ олдида ҳамма тенга.
"Беш панжа" дostonини ўқир экансиз, Кавказ халқларининг марвариддай терилган ҳикмат-ибораларини қўриб завққа тўласиз. Улар башарни аҳилликка, тинчликни асрашга қорлайди.

Салом, башар! Ўнг қўлим мана, Ибрат бўлсин аҳил беш бармоқ. Тинчлик, ижод қилсин тантанана, Кел, заминдош яшайлик иноқ.
Умуман олганда, Асрор Мўмин томонидан таржима қилинган ҳар бир сатр ўқувчини чуқур ўйга толдиради, ҳаёлини шеърятнинг сеҳрли оламига олиб кетади...

...Китобга номи берилган "Турналар" ("Журавли") шеърига басталанган қўшиқни мен илк бор 1970 йили, мактабда ўқиб юрган пайтимда радио орқали эшитгандим. Кейинчалик, ушбу қўшиқни мактаблараро ҳарбий-ватанпарварлик қўшиқлар танлов-конкурсда иштирок этган, аъло баҳоларга ўқийдиган синфдошим Наташа Горяинова ижросида тингладим. У оққуш каби оппоқ қўйлак кийганди, бошида оппоқ дўпписи бор эди. Наташа ўзининг ташқи кўриниши, самимий

лар" қўшиғи қисқа вақт ичида дунёдаги барча халқларнинг севимли қўшиғига айланди. Ҳозирги кунда бу қўшиққа дунёнинг 200 дан ортиқ манзилида ёдгорликлар ўрнатилган.

Фахрланарлиси, бу қўшиққа қўйилган ёдгорликларнинг биринчиси 1972 йили 8 май куни Чирчиқ шаҳримизда очилган!

Айнан шу қўшиқни 1970 йили тингланган Асрор Мўминнинг Расул Ҳамзатов ижодига меҳри тушган ва шу шеър матини таржима қилишни дилига тугган.



ижроси билан нафақат залда ўтирган ўқитувчи ва ўқувчиларни, балки танлов ҳайъати аъзоларини ҳам лол қолдирган, совринли ўринни эгаллаб, мактабларга сазовор бўлганди.

Мен ушбу қўшиқ сўзлари Расул Ҳамзатовга тегишли эканлигини билганимдан сўнг адабиётшунос, раҳматли Носирхон акамларнинг уй кутубхонасидан "Менинг Доғистоним" китобини олиб, катта қизиқиш билан ўқиб чиқдим. Кейинчалик ҳам бу китобни кўп марта мутлолаа қилдим.

Илк бор 1969 йили янраган "Турна-

Унинг бу орзуси 28 йилдан кейин ушалди. "Турналар" шеъри таржимаси 1998 йили "Жаҳон адабиёти" журнали саҳифасида чоп этилди.

Ушбу асар ёш-кексаларга бирдай манзур бўлгани учун Расул Ҳамзатовнинг "Турналар" ("Журавли") шеърини Наум Гребнев томонидан амалга оширилган русча ва Асрор Мўминнинг ўзбекча таржимасини эътиборингизга ҳавола қиламиз. Сиз сўзлар мазмун-моҳиятига эътибор беринг, шеър-қўшиқ ҳамон дунёда тинчликни асрашга, башарни кадрлашга ундаяпти.

Журавли

Мне кажется порою, что солдаты,
С кровавых не пришедшие полей,
Не в землю эту полегли когда-то,
А превратились в белых журавлей.

Они до сей поры с времен тех дальних
Летят и подают нам голоса.
Не потому ль так часто и печально
Мы замолкаем, глядя в небеса?

Сегодня, предвечернею порою,
Я вижу, как в тумане журавли
Летят своим определенным строем,
Как по полям людьми они брели.

Они летят, свершают путь свой длинный
И выкликают чьи-то имена.
Не потому ли с кличем журавлиным
От века речь аварская сходна?

Летит, летит по небу клин усталый –
Летит в тумане на исходе дня,
И в том строю есть промежуток малый –
Быть может, это место для меня!

Настанет день, и с журавлиной стаей
Я полечу в такой же сизой мгле,
Из-под небес по-птичьи окликаю
Всех вас, кого оставил на земле.

Менинг билишимча, қонли жангтоҳдан
Юртига қайтмаган шаҳид ёвқурлар,
Ҳали юмшоқ ўрин топмай тупроқдан,
Оппоқ турналарга айланган улар.

Зеро, улар узоқ йиллардан буён,
Учишар ва бизга беришар овоз.
Шу боис самога термилган замон,
Кўз узмай охиста сўзлаймиз дилроз.

Турналар

Бугун ҳам туманлар сийрак тарафда,
Шом чоғи уларни кузатдим бироз.
Қачондир ер узра юргандай сафда,
Турналар галаси этарди парвоз.

Учиб борар экан ўз манзилига,
Учишар ва бизга беришар. Ахир жуда ўхшаш авар тилига
Турналар таратган ўтинч, нолишлар.

Улар кўкда учар, учар гирён-зор,
Ўтган ажодларим, дўстларим, ёрим.
Кўряпман, қаторда битта бўшлиқ бор,
Уша бўшлиқ менинг боражак жойим.

Қазо ҳақдир! Мен ҳам яшаб умримни
Турналар сафида парвоз этаман.
Ва ерда қолган сиз азизларимни,
Самодан номма-ном йўқлаб ўтаман.

Маҳмудхон ТОИРОВ,
Ўзбекистон Ёзувчилар
уюшмаси аъзоси

Китобга ошно қалблар

▼ Маънавият

Кутубхона деганда кўпчиликнинг кўз олдида жавонларга терилган китоблар ва сукутга чўмган сокин маскан келади. Аммо бугунги кутубхона фақат китоб сақланадиган жой эмас. Бу ерда инсон билим излайди, янги фикрларга дуч келади, ижодкорлар билан мулоқот қилади, дунёқарашини бойитади.

Қибрай тумани Ахборот-кутубхона маркази ҳам ана шундай маърифий масканлардан бири. 2019 йилдан буён фаолият юритаётган мажмуада бугун 30 мингга яқин турли адабиётлар жамланган. Бадиий, илмий, ўқув-услубий, болалар ва хорижий адабиётлардан иборат ушбу фонддан 20 мингга яқин китобхон фойдаланмоқда.

Марказ фаолиятида эътиборли жиҳат – китобни ўқувчига яқинлаштиришга интилиш. Жумладан, "Китобхона оналар" лойиҳаси орқали оилаларда мутлолаа муҳитини шакллантиришга урғу берилмоқда. Зеро, боланинг китобга муносабати кўпинча оиладаги муҳитдан бошланади. Она қўлидаги китоб фарзанд учун энг яхши тарғибот воситаси



бўлиши амалиётда кўп бор исботланган.

Яна бир эзгу ташаббус "Меҳр кутубхонаси" лойиҳаси бўлиб, унда имконияти чекланган фуқароларнинг яшаш манзилига бориб, уларга адабиёт етказиб бериш ва ахборот-кутубхона хизматларини кўрсатиш йўлга қўйилган. Бу орқали кутубхонага кела олмайдиган фуқароларнинг ҳам мутлолаа билан дўст тутинишига шароит яратилмоқда.

Бундан ташқари, марказда инсон ҳуқуқлари мавзусидаги давра суҳбатлари, семинар-

лар, ёзувчи ва шоирлар билан учрашувлар, китоб тақдимотлари, кўргазмалар, танловлар ҳамда маънавий-маърифий тадбирлар мунтазам ўтказилади. Айниқса, ёшлар билан ташкил этиладиган мулоқотлар уларнинг бўш вақтини мазмунли ўтказиш, ижодкорлар билан яқиндан танишиш ва адабиётга қизиқишини оширишда муҳим аҳамият касб этмоқда.

Бугун телефон ва интернет ҳаётимизнинг ажралмас қисмига айланган. Ахборотни бир зумда олиш мумкин бўлган даврда китоб мутлолааси инсонни шошilmасдан ўйлашга, таҳлил қилишга ва фикрини шакллантиришга ўргатади. Шу боис ёшларда ўқишга қизиқиш уйғотиш – уларнинг келажагига киритилган энг яхши сармоялардан бири.

Мазкур Ахборот-кутубхона марказидаги мавжуд адабиётлар ва 20 мингга яқин китобхона ана шу эҳтиёжнинг қўламини кўрсатади. Энг муҳими, марказда китоблар жавонда қолиб кетмаслиги, китобхоналарга етиб бориши учун турли имкониятлар яратилмоқда.

Бундан мақсад эса, аҳолини, айниқса, ёшларни китобхона хизматларини кўрсатиш йўлга қўйилган. Бу орқали кутубхонага кела олмайдиган фуқароларнинг ҳам мутлолаа билан дўст тутинишига шароит яратилмоқда.

Бундан ташқари, марказда инсон ҳуқуқлари мавзусидаги давра суҳбатлари, семинар-

Гулбаҳор ТУРСУНБОЕВА,
Қибрай тумани
Ахборот-кутубхона
маркази раҳбари в.б.

▼ E'lon

O'zbekiston Buka ekspluatatsiya loyihasi bo'limining Doimiy Muassasasi (PE)ni ro'yxatdan o'tkazish hamda buxgalteriya hisobi va soliq hisobotlarini yuritish xizmatlarini xarid qilish bo'yicha narxlar so'rovi e'loni

China Datang Group Overseas Power Operation Co., Ltd. tomonidan O'zbekiston Buka ekspluatatsiya loyihasi bo'limining Doimiy Muassasasi (PE)**ni ro'yxatdan o'tkazish hamda buxgalteriya hisobi va soliq hisobotlarini yuritish xizmatlarini tanlash maqsadida ochiq narxlar so'rovi (Inquiry) o'tkaziladi. Tafsilotlar quyidagicha:

1. Loyiha haqida
China Datang Group Overseas Power Operation Co., Ltd. hamda "Datang Buka New Energy Development Co., Ltd." (O'zbekiston) o'rtasida "O'zbekiston Buka fotoelektr stansiyasini ishlab chiqarish, ekspluatatsiya, texnik xizmat ko'rsatish va boshqarish xizmatlari shartnomasi" imzolangan bo'lib, xizmat muddati 1 yilni tashkil etadi.

Loyiha ehtiyojlaridan kelib chiqib, O'zbekistonda **Doimiy Muassasa (PE)**ni ro'yxatdan o'tkazish hamda buxgalteriya va soliq hisobotlarini yuritish xizmatlarini xarid qilish rejalashtirilgan. Shu munosabat bilan O'zbekiston hududida ochiq narxlar so'rovi e'lon qilinadi.

2. Xarid doirasi

2.1. Xitoy hududida ko'rsatiladigan xizmatlar

Quyidagilarni o'z ichiga oladi, ammo ular bilan cheklanmaydi:

PEni ro'yxatdan o'tkazish uchun zarur barcha hujjatlar-

ni tayyorlash va tarjima qilish; PEni ro'yxatdan o'tkazish hujjatlarini Xitoy hududida ikki bosqichli konsullik tasdiqlashidan (Double Authentication) o'tkazish; 12 oy davomida Xitoy va O'zbekiston soliq tizimlari bo'yicha har oylik moliyaviy taqqoslash tahlili hamda moliyaviy va soliq bo'yicha maslahat xizmatlarini ko'rsatish; Xitoydagi moliya bo'limi bilan hamkorlikni ta'minlash; Xitoy va O'zbekiston buxgalteriya standartlari o'rtasidagi farqlar bo'yicha taqqoslama tahlilini tayyorlash.

2.2. O'zbekiston hududida ko'rsatiladigan xizmatlar

Quyidagilarni o'z ichiga oladi, ammo ular bilan cheklanmaydi: PEni ro'yxatdan o'tkazish uchun zarur barcha hujjatlarini tayyorlash va tarjima qilish; Soliq organlarida ro'yxatdan o'tish; PE ro'yxatdan o'tganligi to'g'risidagi guvohnoma hamda **STIR (INN)**ni olish;

Muhtayotlash; Bank hisob raqamini ochish; 12 oy davomida PE uchun buxgalteriya hisobi va soliq hisobotlarini yuritish, jumladan:

moliyaviy hisobotlarni tayyorlash; soliq hisobotlarini topshirish; byudjet tuzish;

buxgalteriya hisobi; moliyaviy tahlil va boshqa tegishli xizmatlarni ko'rsatish.

3. Ishirokchilarga qo'yiladigan talablar

Ishirokchi quyidagi talablarga javob berishi lozim: O'zbek va xitoy tillarini biladigan, tegishli litsenziyaga ega mahalliy buxgalter mutaxassislriga ega bo'lishi;

Korxonani ro'yxatdan o'tkazish, soliq ro'yxatdan o'tkazish hamda bojxona imtiyozlari bo'yicha hisob yuritish (bojxona imtiyozlari reyestr) ishlarini mustaqil bajarish imkoniyatiga ega bo'lishi;

So'nggi 3 yil davomida O'zbekistondagi Xitoy investitsiyali korxonalar uchun korxona ro'yxatdan o'tkazish, oylik buxgalteriya hisobi, ish haqi va ijtimoiy sug'urta hamda jismoniy shaxslar daromad solig'i hisob-kitoblari bo'yicha shunga o'xshash loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshirgan bo'lishi;

Xizmat ko'rsatish bo'yicha shartnoma majburiyatlarini buzish holatlari mavjud bo'lmastligi.

4. Ariza topshirish tartibi

1-usul: Toshkent viloyati, Bo'ka tumani, Buka fotoelektr stansiyasida bevosita ro'yxatdan o'tish.

2-usul: Ariza (ro'yxatdan o'tish blankasi)ni quyidagi elektron pochta manzillariga yuborish:

shixigen@china-cdto.com
1207588377@qq.com

Ariza shakli:

Tashkilotning to'liq nomi

Rahbar (qonuniy vakil)

Faoliyat turi

Bog'lanish uchun mas'ul shaxs

Lavozimi

Telefon

Elektron pochta

Ariza bilan birga quyidagi hujjatlar ham taqdim etilishi lozim:

Kompaniyaning malaka hujjatlari nusxalari yoki skanerlangan variantlari (guvohnoma, STIR, litsenziya va boshqa tegishli hujjatlar).

Ariza qabul qilinib, tekshiruvdan muvaffaqiyatli o'tgandan so'ng, ishtirokchiga xarid hujjatlari (bepul) yuboriladi.

5. Ariza topshirishning oxirgi muddati

Arizalar 2026-yil 1-avgust soat 17:00 gacha (O'zbekiston vaqti bilan) qabul qilinadi.

Belgilangan muddatdan kech topshirilgan arizalar ko'rib chiqilmaydi.

6. Bog'lanish uchun

Mas'ul shaxslar:

Janob Shi (Xitoy) Tel.: +86 189 8808 5129

Janob Jing (O'zbekiston) Tel.: +998 99 136 90 30

ЯНГИ ҲАЁТ ВА ЁРУҒ КЕЛАЖАК РАМЗИ

Нурафшон Янги Ўзбекистон тараққиётининг кудратли таянчларидан бирига айланмокда

«НУР ТАРАТУВЧИ», «ЗИЁ УЛАШУВЧИ» ШАҲАР

Тарихий манбалар шундан далolat берадики, Тошкент вилояти заминида қадимий Илоқ давлатининг савдо ва маданий маркази — Нуқент гуллаб-яшнаган. Кейинчалик буюк теурийлар даврида айнан шу ҳудудда Шохруҳия шаҳри қайта бунёд бўлган. Бугунги кунга келиб, вилоят аҳли буюк теурийлар ва бунёдкор халқ кудрати жўш урган даврни қайта яшамокда гўё. Янги Ўзбекистоннинг шаҳар-созлик соҳасидаги энг илғор гоғлари мужассам бўлган мутлақо янги — Нурафшон шаҳрининг барпо этилаётгани бу фикрни тасдиқлайди. Тошкент — Кўкон автойўли ёнида, Тошкент шаҳридан 25 км. жанубда жойлашган шаҳар эндиликда саноат, илм-фан ва маданият, таълим ва туризм қорраҳасига айланмокда.

Шаҳарга “Нурафшон”, яъни “нур таратувчи”, “зиё улашувчи” деган ном бежиз танланмаган. Асрлар давомида айнан шу заминдан таралган илм-маърифат зиёси инсоният тафаккурини ёритиб, жаҳон цивилизацияси ривожига улкан ҳисса қўшди. Қадим замонларда бу замин Буюк Ипак йўлининг муҳим тarmoқлари билан боғланган, турли халқлар, маданиятлар ва тамаддуулар туташган қорраҳа бўлган. Бу ерда савдо-сотик, хунармандчилик, деҳқончилик ривожланган, инсонларнинг бунёдкорлик салоҳияти авлоддан-авлодга ўтиб келган. Яратганнинг назари тушган воҳада соҳибқирон бобомиз Амир Темур, улуг аждодимиз Заҳриддин Муҳаммад Бобурнинг қутлуг излари қолган. Бу юртда азалдан маърифат боғини яшнатган улуг боғбонлар — Шайх Умар Богистоний, Занги ота, Хожа Аҳрор Валий, Абу Бақр Шоший, Абу Сулаймон Банокатий каби азиз авлиёлар ва алломалар нафаси ҳамон яшаб келмокда. Шу маънода, Нурафшон номи ҳам аждодларимизнинг маънавий мероси ва Янги Ўзбекистоннинг яратувчанлик гоғларини ўзда мужассам этган тимсол сифатида жаранглайди.

Нурафшон ўзида Янги Ўзбекистоннинг келажак модели, тараққиёт фалсафаси, инсон қадри ва бунёдкорлик гоғларини ифода этади. Бу ном, шунингдек, халқимизнинг ёруғ келажакка қатъий ишончининг, янги ҳаёт тарзининг рамзи ҳам. Агар Самарқанд она диёримизнинг буюк тарихи ва бебаҳо маънавий меросининг тимсоли бўлса, Нурафшон Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт гоғси ва замонавий тафаккурининг ёркин ифодасидир. Шу жиҳатдан, Нурафшонга туташ ҳудудда Тошкент — Самарқанд йўналишида пуллик муқобил йўли қурилиши бошланганида ҳам рамзий маъно мужассам. Самарқанд буюк халқимизнинг ким бўлганини англатса, Нурафшон қандай давлат ва қандай жамият барпо қилаётганимизни, қандай келажак сари интилаётганимизни намoён этади.

Нурафшон XXI аср талаб-

ларига мос, хавфсиз, қулай ва юксак ҳаёт сифатини таъминлайдиган замонавий шаҳар сифатида шаклланмокда. У “ақлли шаҳар” концепцияси асосида тикланаётган нафақат мамлакатимизда, балки Марказий Осиёда ҳам илк шаҳардир. Бу ерда рақамли бошқарув, маданий масканлар, интеллектуал транспорт, энерготехжамкор технологиялар ва экологик инфратузилма ягона тизим сифатида жорий этилмокда.

РАҚАМЛАШТИРИШ ВА ЮҚОРИ ТЕХНОЛОГИЯЛАР МАРКАЗИ

“Ақлли шаҳар” ўз-ўзидан барпо бўлиб қолмайди. Нурафшон шаҳрида ахборот хавфсизлиги ва рақамли технологияларга иxtисослаштирилган “Cyber University” давлат университети фаолияти



йўлга қўйилганидан ҳам мана шу тарихий жараёнларнинг нечоғли аҳамиятли эканини ҳис қилиш мумкин.

— “Ўзбекистон — 2030” стратегиясида юртимизни минтакавий IT-хабга айлантириш устувор мақсадлардан бири сифатида белгиланган, — дейди “Cyber University” давлат университети ахборот-ресурс маркази мудири Васила Деҳқонбоева. — Бунинг учун давлат бошқаруви ва иқтисодий тarmoқларини рақамлаштириш, замонавий алоқа инфратузилмасини ривожлантириш, рақобатбардoш кадрлар тайёрлаш ҳамда инновацион экотизимни кенгайтиришга алоҳида эътибор қаратилмокда. Кейинги йилларда яратилган қулайликлар самараси ўларoқ мамлакатимизда ахборот-коммуникация технологиялари компаниялари, юқори даромадли иш ўринлари ва рақамли хизматлар экспорти изчил кўпаймокда. Бу жараёнларда замонавий билим ва кўникмаларга эга ёш мутахассисларни тайёрлаш муҳим аҳамият касб этади.

Нурафшондаги биринчи олий таълим муассасаси ҳисобланган “Cyber University”нинг очилиши мазкур эҳтиёж ва замон талабидан келиб чиқилган оқилона қарордир. Яқинда тамал тоши қўйилган Келажак технологиялари маркази эса Нурафшон шаҳрини келажак технологияларининг маъмурий пойтахтига айлантирса, ажаб эмас. Зеро, бугун глобал иқтисодийётнинг ўзгаи ва инсонлар кундалик ҳаётининг ажралмас қисмига ай-

ланган ҳамда буюк аждодимиз Муҳаммад ал-Хоразмий асос солган алгоритмларни юксак малака билан ўзлаштирган янги авлод мутахассисларини тайёрлашда бу марказ муҳим аҳамият касб этади.

Умумий майдони 36 гектар бўлган марказ қурилишига қарийб 500 миллион АҚШ доллари микдорида инвестиция жалб қилинади. У таълим, илмий тадқиқот, технологик синов



“Нурафшон ўзида Янги Ўзбекистоннинг келажак модели, тараққиёт фалсафаси, инсон қадри ва бунёдкорлик гоғларини ифода этади. Бу ном, шунингдек, халқимизнинг ёруғ келажакка қатъий ишончининг, янги ҳаёт тарзининг рамзи ҳам. Агар Самарқанд она диёримизнинг буюк тарихи ва бебаҳо маънавий меросининг тимсоли бўлса, Нурафшон Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт гоғси ва замонавий тафаккурининг ёркин ифодасидир. Шу жиҳатдан, Нурафшонга туташ ҳудудда Тошкент — Самарқанд йўналишида пуллик муқобил йўли қурилиши бошланганида ҳам рамзий маъно мужассам. Самарқанд буюк халқимизнинг ким бўлганини англатса, Нурафшон қандай давлат ва қандай жамият барпо қилаётганимизни, қандай келажак сари интилаётганимизни намoён этади.”



ва ишлаб чиқариш жараёнларини бирлаштирадиган ягона инновацион экотизим бўлади. Марказ учун Нурафшон шаҳрининг танлангани ҳам бежиз эмас. Бу ердаги “Cyber University”да киберхавфсизлик ҳамда ахборот ҳимояси соҳаларида қарийб 1 минг нафар мутахассис тайёрланмокда. Энди университет атрофида бутун мамлакат учун намуна бўладиган яхлит инновацион кластер шакллантирилади. Марказда эса киберхавфсизлик, сунъий интеллект, булутили технологиялар ва криптография йўналишларида опитта замонавий лаборатория ташкил этилади. Марказга етакчи глобал компаниялар, университетлар ва олимларни жалб қилиш, талабалар ва ходимлар учун замонавий ижтимоий, маданий ва маиший инфратузилма яратиш кўзда тутилган.

2026 йилда Тошкент вилоятининг рақамли хизматлар экспорти илк бор 50 млн. АҚШ долларига етиши кутилмокда.

Мавжуд имкониятларни янада кенгайтириш учун Нурафшон ва Чирчиқ шаҳарларида замонавий IT-парк бинолари қурилишига ҳам киришилди. Мазкур масканни Тошкент вилоятининг сунъий интеллект ва рақамлаштириш марказига, ёшларнинг билим, истеъдод ва қобилиятини рўёбга чиқарадиган замонавий мажмуага айлантириш асосий мақсад қилинган.



— Мамлакатимизда автомобиль-созлик ва машинасозлик тarmoқларини замонавий талаблар асосида ислоҳ қилиш, соҳанинг рақобатбардoшлигини оширишга алоҳида эътибор қаратилмокда, — дейди “Нурафшон махсус техника” қўшма корхонаси раҳбари Шўҳрат Дониёров. — Умумий қиймати 50 млн. АҚШ доллари бўлган лойиҳа доирасида 25,8 гектар майдонда ташкил этилган корхонамизда “KRANTAS” хосноми остида махсус турдаги автомобильлар, ҳарбий техника ва турли механизмлар ишлаб чиқарилмокда. 300 нафардан зиёд юқори малакали мутахассислар доимий иш ўрни билан таъминланган. Ишлаб чиқаришда фойдаланилаётган ускуна ва технологиялар АҚШ, Германия, Италия, Швеция, Россия, Хитой ҳамда Туркия давлатларидан келтирилган. Ўтган даврда икки ярим минг тоннага яқин металл конструкция, 300 дан зиёд автомобиль усткурмалари, 200 дан ортиқ шасси ва ўнлаб тракторлар ишлаб чиқарилди. Жумладан, ўтган йилда 275 млрд. сўмлик техника ва механизмлар буюртмачиларга етказиб берилди.

ЁШЛАР УЧУН КЕНГ ИМКОНИЯТЛАР

“Авал инсон, кейин жамият ва давлат” деган халқий тамойил Янги Ўзбекистондаги ислохотларнинг бош мезонига айланган. Мана шу тарихий янгилашлар жараёнида Нурафшон, аввало, илм-фан, маънавият ва ёшлар шаҳри сифатида қайтадан кўз очмокда. Гап шундаки, Президентимизнинг тегишли фармонида мувофиқ, республикамиздаги ўн тўртта ҳудудий бирлик қаторида Нурафшонга ҳам “Ёшлар шаҳри” мақоми берилди. Бу нурафшонлик ҳар бир ёш учун янги имконият эшикларини очди. Эндиликда шаҳарда минг ўринли замонавий санъат саройи, Бадиий академиянинг вилоят бўлими, сунъий интеллект маркази, ахборот-ресурс кутубхонаси, касблар маркази ва бошқа муҳим иншоотларни ўз ичига олган замонавий “Ёшлар шаҳарчаси” барпо этилмокда.

“Ақлли шаҳар” тамойили асосида қурилаётган Нурафшонда шу билан бирга, вилоят ҳокимлиги, давлат архиви, замонавий тиббиёт кластери, Тошкент давлат тиббиёт университети ва Тошкент давлат техника университетининг вилоят филиаллари, Илғор касбий маҳорат техникуми, миграция маркази ва бошқа кўплаб маъмурий-ижтимоий объектлар қад ростламокда.

Бугунча эса минглаб квартирали кўп қаватли уйлар, сўлим хиёбонлар, маданият ва

ижтимоий соҳа объектлари фойдаланишга топширилди. Бунёдкорликнинг янги манзилига айланган шаҳарда биригина 2025 йилнинг ўзида қиймати 1,210 млрд. сўмлик қурилиш ишлари амалга оширилди ва бу ўтган уч йилги умумий қўрсаткич билан қарийб тенгдир.

Аммо Нурафшон фақат бетон ва шишадан қурилган манзил бўлиб қолмайди. Шаҳар, аввало, инсонга руҳий ором берадиган, оилалар бирга вақт ўтказадиган, ёшлар ороу қиладиган масканга айланади. Шу маънода, Тошкент вилоятида баҳорнинг таровати, ёзнинг ҳарорати, кўзнинг маллоҳатю кишининг ҳаловатини туйиш мумкинлигини қайд этиш керак. Айниқса, Бўстонлик, Паркент, Охангарон, Ангрeндаги тоғу адирлар, сув омборлари, турнакўз булоқлар, дала ва боғлар нафосати, қадимий манзилгоҳлардаги осориётқалар, ҳудудий брендага айланиб бораётган таомлар, замонавий хизмат ва марoқли саргузаштлар ҳеч кимни бефарқ қолдирмайди.

«ТАШРИФ ҚОҒОЗИ»ГА АЙЛАНГАН ТУРИЗМ МАНЗИЛЛАРИ

Вилоятдаги деярли барча туризм манзилларининг ўз зийнати ва фазилати, бошқача айтганда, сайёҳлар учун “ташриф қоғозлари” бор. Вилоят бўйлаб 30 дан зиёд туристик йўналишлар ишлаб чиқилган. Маданий-кўнгилочар тадбирлар мунтазам ташкил этилади. “Илоқ”, “Узумчилик ва вино”, “Сўқоқ таомлари”, “Паҳлавон Фарҳод”, “Импульс”, “Чимён садоси” каби фестивал ва мусобoқаларни хорижда ҳам яхши билади. Бунинг самараси ўларoқ, сўнгги бир йил ичида вилоятга 1 млн. 532 минг хорижий ва 19 млн. 350 минг нафар маҳаллий сайёҳ ташриф буюрди ҳамда туризм хизматлари экспорти 438 млн. АҚШ долларига етди.

— Турли тилларда, ранг-баранг шеваларда сўзлашаётган, лекин ягона мақсад билан яшаётган Тошкент вилоятининг қарийб 4 млн.лик аҳолисининг орзу-интилишлари, бир-бирига меҳр-оқибатларига ҳар қанча ҳавас қилсак арзийди, — дейди Халқ депутатлари Тошкент вилояти Кенгаши раиси Сайёра Файзиева. — Президентимиз раҳнамолигида кейинги йилларда эришадиган ҳар бир ютуғимиз ортида мана шу инсонларнинг ҳалоп меҳнати, фидойилиги ва Ватан тақдирига дахлдорлик туйғуси мужассам. Ўз навбатида, мамлакатимиз раҳбарининг вилоятимизга эътибори, ғамхўрлиги бўлакча экани бизга катта куч бермокда. 2026 йилнинг ўзида Президентимиз Тошкент вилоятига олти марта ташриф буюганининг ўзиёқ фикримизни исботлайди. Бу ташрифлар

замирида янги иш ўринлари яратиш, камбағалликни қисқартириш орқали аҳоли фаровонлигини ошириш, одамларнинг турмуш шароитини янада яхшилашдек халқчил сиёсат бор.

Ҳақиқатан ҳам, Тошкент вилояти мамлакатимиз иқтисодийётининг энг йирик устунларидан бири ҳисобланади. Бу вилоят саноатда ҳам, қишлоқ хўжалигида ҳам, транспорт ва логистика тarmoғида ҳам, илм-фан ва йирик инвестиция соҳасида ҳам катта салоҳиятга эга. Тошкент вилояти юртимиздаги энг йирик истеъмол ва хизматлар бозорини, яъни пойтахтимизни ҳар томондан ўраб туради. Мамлакатимиз ялпи ички маҳсулотининг қарийб 10 фоизи айнан пойтахт вилояти ҳиссасига тўғри келади.

Бугун ялпи ҳудудий маҳсулот ҳажмининг 180 трлн. 177 млрд. сўмга етиб, 6 баравар ўсгани вилоят иқтисодиёти ривожига жадаллигидан далolat беради. Энг асосий мезон — аҳоли жон бошига тўғри келадиган даромад 2017 йилдаги 5,9 млн. доллардан 54,3 млн. сўмга кўтарилгани, охириги беш йилда ҳамин 16 млрд. АҚШ доллари микдорида тўғридан-тўғри хорижий инвестиция жалб қилингани, чет эл капитал иштирокидаги 2829 та корхона фаолият кўрсатаётгани, экспорт ҳажми эса 2,8 млрд. долларга етгани оқилона иқтисодий сиёсат самарасидир.

— Шу Наврўзда умримнинг тўқсон иккинчи баҳорига пeshов чикдим, — дейди “Нуроний” жамғармаси Нурафшон шаҳри бўлинимаси раҳбари Жўра ота Аҳмедқулов. — Етмиш йиллик меҳнат фаолиятим давомида Нурафшондаги Муқимий номидаги маҳаллага раис ҳам бўлдим, Тўйтепа шаҳрида ҳоким бўлиб ҳам ишладим. Йўқ, бундай тараққиёт, бу каби ўзгариш, мана шундай имкониятни кўрмадим. Қанийди, шу имкониятлар ҳоким ё раис бўлиб ишлаган вақтимида бўлганда эди, деб хаёл қиламан. Эндиликда нурафшонлик нуронийлар раҳбарлар ва раислар атрофида бирилашиб, Нурафшонни Янги Ўзбекистоннинг энг гўзал шаҳрига айлантириш учун бор куч-ғайратимизни ишга солиамиз.

Қурилишга старт берилган Тошкент — Самарқанд янги автомагистрални, Нурафшонда тамал тоши қўйилган Келажак технологиялари маркази ва бошқа кенг кўламли бунёдкорлик ишлари Тошкент вилоятини Янги Ўзбекистон иқтисодий ва технологик тараққиётининг кудратли таянчига айлантириши шубҳасиз. Нурафшон эса нафақат Тошкент вилоятининг маъмурий маркази, балки Янги Ўзбекистоннинг бунёдкорлик руҳи, инсон қадри ва келажакка ишонч тимсоли сифатида янада юксалаверади.

Ҳайрат ШЕРАЛИЕВ,
Отабек ИСРОИЛОВ
(«Халқ сўзи»)

TOSHKENT HAQIQATI
ТАШКЕНТСКАЯ ПРАВДА

Муассис:
TOSHKENT VILOYATI HOKIMLIGI

“Toshkent haqiqati” va
“Tashkentskaya pravda” gazetalarini
tahrir hay'ati:

Zoyir MIRZAYEV (tahrir hay'ati raisi),
Abdusamad NOSIROV, G'afurjon MUHAMEDOV,
Sayyora FAYZIYEVA, Abduvosit ABDURAZZOQOV,
Mahmud TOIR, Azamat MIRZAYEV,
Uskenboy ATEMOV, Abdulla XURSANOV,
Otabek SULTONBEKOV, G'ayrat SHERALIYEV,
Kumush EGAMBERDIYEVA,
Olimjon BEGALIYEV, Sergey MUTIN

Bosh muharrir:
To'xtamurod HASANBOYEV

Mas'ul kotib:
Alloma AZIZOVA
Navbatchi:
Nozima RASULOVA

Toshkent viloyati Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasida
2011-yil 12-yanvarda
03-001 raqami bilan
ro'yxatga olingan.

Qabulxona: (55) 520-64-95. Bosh muharrir o'rinbosari: (55) 520-04-10.
Mas'ul kotib: (55) 520-05-10. Bo'lim muharrirlari: (55) 520-06-20, (55) 520-04-20.
E'lonlar va hisob-kitob bo'limi: (55) 520-21-20.
e-mail: toshkenthqiqati@umail.uz

Gazeta “Toshkent haqiqati” tahririyati kompyuter markazida terildi va Tohir Mahmudxo'jayev tomonidan sahifalandi. Haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi.

Manzil: 111500, Nurafshon shahri, Toshkent yo'li ko'chasi, 90. Toshkent shahridagi ofisimiz: Bektemir tumani, Ittifoq ko'chasi, 2. ISSN 2010-9318.

Bosishga topshirish vaqti — 20:00. Bosishga topshirildi — 21:00. Nashr ko'rsatkichi — 205.
6 882 nusxada chop etildi. Hajmi — 2 taboq. Buyurtma G-835.
Ofset usulida bosildi. Qo'g'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

«SHARQ»
nashriyot-matbaa
aksiyadorlik
kompaniyasi
bosmaxonasida
bosildi.
Korxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon
ko'chasi, 41-uy.